



## INFLUENCE OF NATIONAL TRADITIONS, VALUES AND TRADITIONS IN THE EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH MODERN TECHNOLOGIES

**Soliyev Ilhom Sobirovich**

FarSU, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate  
Professor

**Toychiyeva Shokhidaxon Qakhramon kizi**

FarSU, Theory and Methodology of Education and Training (Preschool  
Education), 1st year Master

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14778414>

### ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> January 2025

Accepted: 30<sup>th</sup> January 2025

Online: 31<sup>th</sup> January 2025

#### KEYWORDS

Preschool education,  
national customs, traditions,  
values, modern technologies,  
child upbringing,  
innovations in education,  
moral development.

### ABSTRACT

*This scientific article analyzes the importance of instilling national customs, values and traditions through modern technologies in the education of preschool children. Today, the rapid development of technologies creates new opportunities for the introduction of innovations in education and their integration while preserving national values in the process of raising children. Modern technologies play a major role in shaping children's cultural identity and making education more effective with the help of various applications and technologies. Based on research and experience, this article talks about how modern technologies can be used as a useful tool in education and upbringing of children.*

## ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ, ЦЕННОСТЕЙ И ТРАДИЦИЙ НА ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ЧЕРЕЗ СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

**Солиев Илхом Собирович**

ФарГУ, доктор педагогических наук, доцент

**Тойчиева Шохидаксон Кахрамон кызы**

ФарГУ, студент 1 курса, специальность «Теория и методика воспитания и обучения  
(дошкольное образование)»

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14778414>

### ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> January 2025

Accepted: 30<sup>th</sup> January 2025

Online: 31<sup>th</sup> January 2025

#### KEYWORDS

Дошкольное образование,  
национальные обычаи,  
традиции, ценности,  
современные технологии,  
воспитание детей,  
инновации в образовании,  
нравственное развитие.

### ABSTRACT

*В научной статье анализируется важность привития национальных обычаев, ценностей и традиций посредством современных технологий в образовании детей дошкольного возраста. Сегодня стремительное развитие технологий создает новые возможности для внедрения инноваций в образование и их интеграции с сохранением национальных ценностей в процессе воспитания детей. Современные технологии играют важную роль в формировании культурной идентичности детей и повышении эффективности образования с помощью различных приложений и*



технологий. В статье на основе исследований и экспериментов обсуждается, как современные технологии могут быть использованы в качестве полезного инструмента в образовании и воспитании детей.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TARBIYASIDA MILLIY URF- ODATLAR, QADRIYATLAR VA AN'ANALARNI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI SINGDIRISH

**Soliyev Ilhom Sobirovich**

FarDU, Pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**To'ychiyeva Shoxidaxon Qaxramon qizi**

FarDU, Ta'lim va tarbiya na'zariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi, 1-kurs magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14778414>

### ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> January 2025

Accepted: 30<sup>th</sup> January 2025

Online: 31<sup>th</sup> January 2025

### KEYWORDS

Maktabgacha ta'lim, milliy  
urf-odatlar, an'analar,  
qadriyatlar, zamonaviy  
texnologiyalar, bolalar  
tarbiyasi, ta'limda  
innovatsiyalar, axloqiy  
rivojlanish.

### ABSTRACT

*Mazkur ilmiy maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyasida milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarni zamonaviy texnologiyalar orqali singdirishning ahamiyatini tahlil qiladi. Bugungi kunda texnologiyalarning tez rivojlanib borayotganligi, ta'limda yangiliklarni joriy etish va bolalarni tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlarni saqlagan holda ularni birlashtirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy texnologiyalar bolalarning madaniy o'zligini shakllantirishdagi va turli ilova va texnologiyalar yordamida ta'limni yanada samarali qilishda katta rol o'ynaydi. Ushbu maqolada olib borilgan tadqiqotlar va tajribalarga asoslanib, zamonaviy texnologiyalarning ta'limda va bolalar tarbiyasida qanday foydali vosita sifatida ishlatilishi borasida so'z yuritilgan.*

**Kirish.** Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyasida nafaqat an'anaviy metodlardan, balki zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali ham amalga oshirilmoqda. Texnologiyaning rivojlanishi ta'lim jarayoniga yangiliklar olib kelgan bo'lsa-da, milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarni bolalar tarbiyasiga singdirish bu jarayonning ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy va axloqiy jihatdan rivojlantirishda milliy qadriyatlarining roli katta. Bunday qadriyatlar nafaqat bolalarning ma'naviyatini shakllantiradi, balki ularning jamiyatga hurmat, mehnatsevarlik, adolat kabi axloqiy tushunchalarni o'rganishlariga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida texnologiyalar va milliy qadriyatlarining birlashishi haqida ko'p marotaba gapirgan. U, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda texnologiyalarning ahamiyatini ta'kidlab, "Yoshlarni zamonaviy bilim va



tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz" deb ta'kidlaganlar.

Shu bilan birga, texnologiyalarning rivojlanishi va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish bolalar tarbiyasida yangi usullarni kiritishga yordam beradi. Bolalar uchun ta'lim muassasalarida interaktiv o'yinlar, onlayn darslar, multimedia vositalari yordamida milliy an'analar va urf-odatlar o'rgatilib, ularga yangi formatda tarbiya berish mumkin. Bu o'z navbatida bolalarning qiziqishlarini oshiradi va ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

Xozirgi davrda zamonaviy texnologiyalarning tarbiya jarayonida qo'llanilishi juda samarali deb hisoblanmoqda. O'qituvchilar va tarbiyachilar uchun mavjud texnologiyalar bolalarga milliy qadriyatlarni tushuntirishni osonlashtiradi desak ham bo'adi. Misol uchun, onlayn platformalar orqali milliy bayramlar va an'analar haqida taqdimotlar, videolar, interaktiv o'yinlar tayyorlashimiz va ular orqali o'rgatib borishimiz mumkin. Bu texnologiyalar bolalarning faolligini oshirib, ular uchun foydali va qiziqarli ta'lim jarayonini yaratadi.

Shuningdek, texnologiyalar yordamida milliy urf-odatlarni saqlash va ularni avloddan avlodga yetkazish imkoniyati ham yaratiladi. O'zgarmas qadriyatlarni yangi avlodga yetkazish uchun multimedia vositalari (video, audiokontent, interaktiv o'yinlar) yordamida zamonaviy yondashuvlar joriy etilishi mumkin. Masalan, bayramlar va milliy o'yinlar haqida animatsion filmlar bolalarga milliy bayramning mazmunini o'rganishga yordam beradi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamonaviy elektron jihozlar bilan ta'minlanib borilayotganini kuzatmoqdamiz. Xozirda smartfonlar, planshetlar va kompyuterlar bolalar uchun o'rganishning yangi usullarini yaratmoqda. Mobil ilovalar va interaktiv platformalar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalar milliy ertaklar, qo'shiqlar, raqslar va xalq an'analari bilan tanishishadi. Bu texnologiyalar bolalar nafaqat ta'lim olishini, balki milliy qadriyatlarni chuqurroq anglashini va o'z madaniyati bilan tanishishini ta'minlaydi. Masalan, "Xalq Ertaklari" ilovasini planshetlarga yuklab olishimiz, yoki telefonga yuklash orqali televizorda ertakni audio, video shaklda bolalarga qo'yib berishimiz mumkin bo'ladi.

Milliy urf-odatlar va qadriyatlar tarbiyada muhim o'rin tutgan bo'lsa-da, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan uyG'unlashtirish zarurati mavjud. Bu nafaqat bolalar uchun qiziqarli, balki ta'lim jarayonini samarali qiladi va milliy madaniyatni o'rgatishni osonlashtiradi. Texnologiyalarning eng samarali qo'llanilishi, albatta, ta'lim jarayonida o'qituvchilar va tarbiyachilarning professional yondashuvlariga boG'liq.

**Xulosa.** Zamonaviy texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyasiga milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarni singdirishda katta ahamiyatga ega. Texnologiyalar yordamida milliy an'analar va qadriyatlar bolalar uchun yanada samarali va qiziqarli tarzda o'rgatiladi. Buning natijasida, bolalar o'zlarining milliy kimligini angelaydi, ma'naviy va axloqiy jihatdan rivojlanadi, shuningdek, zamonaviy dunyoqarashni qabul qilishga tayyor bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning fikrlariga asoslanib, texnologiyalarni milliy qadriyatlar bilan uyG'unlashtirish orqali biz yosh avlodni yangi va to'liq shakllangan shaxs sifatida tarbiyalay olamiz. Shunday qilib, texnologiyalardan foydalanish nafaqat ta'limda yangiliklar olib keladi, balki milliy qadriyatlar va urf-odatlarni saqlashga ham yordam beradi deya olamiz.



## References:

1. Sh. Mirziyoyev, (2020). "Zamonaviy bilim va texnologiyalarni milliy qadriyatlar bilan uyG'unlashtirish". Prezidentning nutqi, Toshkent.
2. A. Ibragimov (2021). "Zamonaviy texnologiyalar va bolalar tarbiyasidagi innovatsiyalar". O'zbekiston ta'lim jurnali, 7(2), 45-52.
3. S. Karimov (2020). "Milliy an'analarni saqlashda texnologiyalarning roli". Ta'lim va madaniyat, 6(1), 33-40.
4. R. Xolmuhammedov (2022). "Maktabgacha ta'limda zamonaviy texnologiyalar". Pedagogika ilmiy jurnali, 10(4), 12-20.
5. T. Azizov (2023). "Zamonaviy texnologiyalar va maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar". Bolalar ta'limi, 8(3), 55-61.
6. A. Shukurov (2021). "Milliy qadriyatlarni texnologiyalar yordamida bolalar tarbiyasiga singdirish". O'zbekiston pedagogika jurnali, 6(2), 22-29.
7. S. Toshpo'latov (2024). "Texnologiyalar va tarbiya: Milliy qadriyatlar va an'analarni saqlash". Ta'limda innovatsiyalar, 9(1), 67-73.
8. Sh. Vohidov (2020). "Milliy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalar". Pedagogikada yangiliklar, 3(4), 44-51.
9. D. Islomov (2020). Maktabgacha ta'limda interaktiv texnologiyalarni qo'llash. Tashkent: Fan va texnologiya.
10. F. Xolmatov (2018). Milliy madaniyatni yosh avlodga singdirish // Ta'lim va tarbiya, №3, 12-15 betlar.